



UDK: 338:911.372.32 (575.17)

Nazar ESANOV,
katta o'qituvchisi, PhD, Termiz davlat universiteti
E-mail: esanovn@mail.ru, Orcid ID 0009-0008-5926-4365

Termiz davlat universiteti dotsenti, PhD Q. To'rayeva taqrizi asosida

“YANGI O‘ZBEKISTON” TURAR-JOY MASSIVLARI-YANGI O‘ZBEKISTON SHAHARCHALARI

Annotatsiya

Maqolada yangitdan tashkil etilayotgan aholi manzilgohlari, jumladan, to'liq tasdiqlangan bosh rejalar asosida qurilayotgan, O'zbekiston shaharchalari orasida yangi toifa “Yangi O'zbekiston” massivlarining Surxondaryo viloyatida tashkil etilishi bilan bog'liq jarayonlar, bu hududlarda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari, aholiga yaratilayotgan shart-sharoitlar, infratuzilma imkoniyatlari haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Surxondaryo, Yangi O'zbekiston massivlari, shaharcha, Angor Jarqo'rg'on, Sariosiyo, Boysun, Termiz.

ЖИЛЫЕ МАССИВЫ «ЯНГИ УЗБЕКИСТАН»-НОВЫЕ ПОСЁЛКИ ГОРОДСКОГО ТИПА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В статье представлена информация о процессах создания в Surxandaryinskoy oblasti населенных пунктов нового типа-массивов “Янги Узбекистан”, возводимых на основе полностью утвержденных генеральных планов. Рассматриваются проводимые на данных территориях созидательные работы, создаваемые условия для населения, а также возможности современной инфраструктуры

Ключевые слова: Surxandaryo, массивы «Янги Узбекистан», посёлки городского типа, Ангор, Джаркурган, Сарнисия, Байсун, Термез, генеральный план, инфраструктура, созидательные работы.

"YANGI O‘ZBEKISTON" RESIDENTIAL MASSIFS-NEW URBAN-TYPE SETTLEMENTS OF NEW UZBEKISTAN

Annotation

This article provides information on the creation of a new category of settlements in the Surkhandarya region-the “Yangi O'zbekiston” (New Uzbekistan) massifs, which are being constructed based on fully approved master plans. It examines the ongoing construction works, the conditions being created for the population, and the infrastructure capabilities in these areas.

Key words: Surkhandarya, Yangi O'zbekiston massifs, urban-type settlement, Angor, Jarkurgan, Sariosiyo, Boysun, Termez, master plan, infrastructure, construction.

Kirish. Mamlakatimizda aholiga munosib yashash sharoitlarini yaratish, qurilish va infratuzilma obyektlarini ishga tushirish ishlari izchillik bilan amalga oshirib kelinmoqda. Hususan, o'zida zamonaviy shaharsozlik imkoniyatlarini to'liq jamlagan, yurtimizning barcha viloyatlarida tasdiqlangan reja asosida qurilayotgan «Yangi O'zbekiston» massivlari buning yorqin misolidir. Hududlarda 2030 yilgacha kamida 100 ta “Yangi O'zbekiston” massivlarini qurish reja qilingan. Bu hududlarda yashash istagini bildirayotgan aholi talabalaridan kelib chiqib yangi massivlar uchun tanlab olinayotgan yerlar kamida 70 ming odam yashaydigan tuman markazi yoki shahar hududiga 1-2 kilometr masofadagi joydan ajratilmoqda. Bu massivlarning har birida 100 ming kvadrat metr maydonga ega xonadonlar quriladi[1].

Ishning maqsadi va vazifalari. Mazkur tadqiqot ishining **maqsadi** yurtimizda hususan, Surxondaryo viloyatida tasdiqlangan reja asosida qurilayotgan “Yangi O'zbekiston” massivlari bilan bog'liq jarayonlarning borishini tahlil qilish. Viloyatda qurilgan “Yangi O'zbekiston” massivlarining yangi shaharchalar sifatida shakllanishi va rivojlanishining o'ziga hos jihatlari o'rganish, ushbu massivlarning rivojlanish dinamikasini ko'rsatish va unga ta'sir qiluvchi omillarni ochib berish hisoblanadi. Ushbu maqsadlardan kelib chiqqan holda ishda quyidagi **vazifalar** belgilab olindi:

- Surxondaryo viloyatida tasdiqlangan reja asosida qurilayotgan “Yangi O'zbekiston” massivlari barpo qilinishini tahlil qilish;

- hukumat qaroriga asosan viloyatning ayrim tumanlarida qurilayotgan “Yangi O'zbekiston” massivlarining shaharchalar sifatida rivojlanishi, shakllanishining o'ziga xos jihatlari o'rganish.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda yangi turdagi aholi manzilgohlarini barpo etish masalasi ko'plab tadqiqotchilar e'tiborida bo'lib kelmoqda. A.S.Soliyev “Проблемы расселения и урбанизации в республиках Средней Азии” monografiyasida, A.S.Soliyev, S.K.Tashtayeva, M.M.Egamberdiyeva “Shaharlar geografiyasi” nomli o'quv qo'llanmasida [4] Markaziy Osiyo va O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari, X.M.Abdunazarov, M.X.Umarova, N.A.Esanovlar “Surxondaryo geografiyasi (1-qism. Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya)” nomli o'quv qo'llanmalarida [2] Surxondaryo viloyatining aholi manzilgohlari haqida ma'lumot berishgan. Biroq, O'zbekiston Respublikasida qurilayotgan “Yangi O'zbekiston” massivlarining shakllanishi ayniqsa, Surxondaryo viloyati misolida “Yangi O'zbekiston” massivlarini barpo etish tajribasi hali yetarli darajada tadqiq etilmagan yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Asosiy natijalar va ularning muhokamasi. 2021-yil 9-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O'zbekiston” massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-32-sonli Farmoni qabul qilingan [2]. Farmonda keltirilgan 2022-yilda quriladigan “Yangi O'zbekiston” massivlarining manzilli ro'yxati ma'lumotlarida Surxondaryo viloyatining Angor tumani “Sharq guli” MFY hududida 11,5 ga maydonda 408 xonadonli

17 ta ko'p qavatli turar-joylar, 1 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, Jarqo'rg'on tumani "Qorayantoq" MFY hududida 24,5 ga maydonda 396 xonadonli 20 ta ko'p qavatli turar-joylar, 1 ta umumta'lim maktabi va 1 ta tibbiyot muassasasi, Sariosiyo tumani "Lutfukor" MFY hududida 31,0 ga maydonda 556 xonadonli 19 ta ko'p qavatli turar-joylar va 1 ta umumta'lim maktabi, Boysun tumani "Mustaqillik" MFY hududida 7,7 ga maydonda 200 xonadonli 10 ta ko'p qavatli turar-joylar va 1 ta umumta'lim maktabi qurilishi ko'rsatilgan. Viloyatda 2023-yilda "Yangi O'zbekiston" massivlarida jami 1 136 xonadonli 49 ta turar-joylar foydalanishga topshirilgan.

Keyinchalik bu kabi "Yangi O'zbekiston" massivi Termiz tumanining Yangiobod MFY hududida ham barpo etilishi boshlab yuborildi.

Bugungi kunda viloyatda amalga oshirilgan "Yangi O'zbekiston" massivlari orasida eng yirigi Jarqo'rg'on tumanida barpo etildi. Cho'l hududini o'zlashtirish hisobiga bunyod etilayotgan massivning dastlabki loyihasida 24,5 ga maydonda 396 xonadonli 20 ta ko'p qavatli turar-joylar, 1 ta umumta'lim maktabi va 1 ta tibbiyot muassasasi rejalashtirilgan bo'lsa, keyinchalik hududning 50 gektarga kengayishi, ko'p qavatli uylar soni esa 116 tagacha yetkazilishi rejalashtirilgan. 2026-yilga kelib bu yerda dastlabki loyihada tasdiqlangan 20 taga qo'shimcha 48 ta ko'p qavatli, 1,5 mingta xonadonli turar-joylar, loyihadagi 330 o'rinli, tumanning 66-maktabi va mahalla binosi, tarkibida axborot texnologiyalari va ingliz tili o'quv markazi bo'lgan 7 ta mikromarkaz, 29 ta savdo va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari va 1 ta, 180 o'rinli maktabgacha ta'lim tashkiloti barpo etildi. Aholi talablaridan kelib chiqib zamonaviy xizmat ko'rsatish nuqtalari xususan, 6,5 milliard so'm hisobiga barpo etilgan, 400 o'rinli, 20 ga yaqin mutaxassislar faoliyat olib borayotgan, xorijiy tillar va axborot texnologiyalari o'quv markazi faoliyat olib bormoqda. Markaz yiliga 2 mingdan ortiq yoshlarga ta'lim olish va loyihalar ustida ishlash imkoniyatini yaratadi. Bu yerda 200 nafarga yaqin o'quvchi kompyuter savodxonligi va "front-end" yo'nalishlarini muvaffaqiyatli yakunlab, sertifikat olishgan. Markazning 150 nafarga yaqin bitiruvchi o'quvchilari IELTS imtihonlarida B2 va undan yuqori natijalarni qayd etishgan.

Massiv ta'minoti uchun 3 kilometrga yaqin hududdan gaz va ichimlik suv quvuri, issiqlik tarmoqlari tortilib, 250 kilovattli transformator o'rnatilgan. Hududdagi ko'p qavatli aksariyat uylar tomiga 5-15 kilovattli quyosh panellari o'rnatilgan.



1-rasm. Jarqo'rg'on tumanida qurilgan "Yangi O'zbekiston" massivi ko'rinishi

Zamonaviy shaharsozlik talablari asosida barpo etilayotgan massiv hududida joylashgan 54 ta ko'p qavatli aholi uylariga "Yangi yoshlar" boshqaruv servis kompaniyasi xizmat ko'rsatmoqda. Aholining madaniy xordiq chiqarishi uchun 4,5 gektar yerga manzarali va mevali daraxtlar, dasht hududida esa qum ko'chishining oldini olish maqsadlarida 300 gektar maydonga saksovul o'simliklari ekilgan.

Kelgusida bu yerda yana 48 ta uy qurilishi ko'zda tutilgan. Xususan, 2026-yilda yana 14 ta 280 xonadonli, ko'p qavatli uy-joy, yangi yo'llar, ko'kalamzorlashtirish ishlari hamda istirohat bog'i barpo etilishi rejalashtirilgan.

Yuqorida ta'kidlangani singari viloyatning markazdan olis, tog'li Sariosiyo tumanida ham "Yangi O'zbekiston" massivi qurilmoqda. Alohida qayd etib o'tish kerak, viloyatning barcha bu kabi massivlari **"kompleks rivojlanish tamoyili"** ya'ni ijtimoiy obyektlarning majmua xolida barpo etilishiga katta e'tibor qaratilmoqda. 2022-yilda hududda 7 qavatli 19 ta 728 ta xonadonga ega ko'p qavatli turar-joylar qurilgan bo'lsa, 2023-yilda 16 ta 9 qavatli uylar qurilgan. Dastlabki loyihada tumanning "Lutfukor" MFY hududida 31,0 ga maydonda 556 xonadonli 19 ta ko'p qavatli turar-joylar va 1 ta umumta'lim maktabi qurilishi rejalashtirilgan. Keyinchalik kiritilgan qo'shimcha va o'zgarishlarga ko'ra 2026-yilga kelib ko'p qavatli turar-joylar soni 79 ta ularda joylashgan xonadonlar soni esa 2322 taga yetkazildi.

Massivda 24 mingdan ortiq aholiga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan, zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan to'liq jihozlangan oilaviy shifokorlik punkti faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, aholi uchun adaptiv sport turlariga ixtisoslashgan sport zali, "Workout" maydonchasi, usti yopiq o'yingoh va boshqa ijtimoiy obyektlar qurib ishga tushirilgan.



2-rasm. Sariosiyo tumanida qurilgan "Yangi O'zbekiston" massivi ko'rinishi

Termiz tumanining Yangiobod MFY hududida ham 6 ming 280 xonadonga mo'ljallangan 74 ta ko'p qavatli uy, 2 ming 640 o'rinli ikkita maktab, 420 o'rinli ikkita maktabgacha ta'lim muassasasi, 200 qatnovga mo'ljallangan oilaviy poliklinika hamda mahalla markazi, "Yangi O'zbekiston" bog'i, amfiteatr, Termiz davlat pedagogika instituti ma'muriy binosi hamda talabalar yotoqxonasi kabi inshootlar qurilishini o'z ichiga olgan bosh reja loyihasi asosida "Yangi O'zbekiston" massivi qurilmoqda. Massivda shuningdek, import o'rnini bosadigan mahsulotlarni mahalliy lashtirish maqsadida 17 gektar yer maydonida "TEXNO-PARK" sanoat zonasi tashkil etilmoqda.

Texnoparkda 6 ta ishlab chiqarish bloki tashkil etilmoqda. Texnoparkda 168 ta lot orqali sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Bu esa mingga yaqin yangi ish o'rinlari, yiliga 500 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarish, shuningdek, byudjetga 60 mlrd so'mlik qo'shimcha tushum manbaini yaratishga xizmat qiladi [5].



3-rasm. Termiz tumanida qurilgan "Yangi O'zbekiston" massivining ko'rinishi

Xulosa. 2030-yilgacha mamlakat bo'ylab nafaqat uy-joy muammosini hal qilish, balki hududiy iqtisodiy o'sish nuqtalarini yaratishga qaratilgan, kamida 100 ta «Yangi O'zbekiston» massivini barpo etish rejalashtirilgan. 2025-yilda ushbu massivlar infratuzilmasi uchun davlat tomonidan 1,2 trln so'm mablag' ajratilishi belgilangan. Qurilish tashkilotlariga aylanma mablag'lar uchun budjetdan 700 mlrd so'm va banklar mablag'laridan 3 trln so'm yo'naltirish ko'zda tutilgan [5]. Surxondaryo viloyatida ham 2025-yil davomida qurilish ishlari hajmi o'tgan yilga nisbatan o'sish tendensiyasini saqlab qolgan. Termiz, Angor va Boysun, Sariosiyo, Jarqo'rg'on tumanlarida barpo qilingan "Yangi O'zbekiston" massivlarda ko'p qavatli uylar bilan birga 3 500 o'rinli amfiteatr, muzeylar va sanoat zonalari, zamonaviy maktablar, bog'chalar va tibbiyot muassasalari qurib ishga tushirilmoqda. Shuningdek, 2025-yildan yangi massivlar uchun yer uchastkalari qat'iy urbanizatsiya tamoyillari asosida tanlab olinishi belgilangan. Qurilish sohasidagi bu kabi loyihalar mahalliy aholi uchun o'n minglab yangi ish o'rinlarini yaratish va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish imkonini berish bilan bir qatorda, shahrcha aholi manzilgohlarining mutlaqo yangi, zamonaviy namunalari paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

ADABIYOTLAR

1. <https://kun.uz/89614494>
2. <https://lex.uz/docs/-5767440>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-sonli "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6600413>.
4. Абдуназаров Х.М., Умарова М. Сурхондарё географияси (1-кисм. Табиий география) Ўқув қўлланма. Термиз.: 2023 йил.178-б.
5. Аҳмедов Э., Файзиев Н. Ўзбекистон аҳолиси. Справочник. –Тошкент: Ўзбекистон, 1967. – Б. 215.
6. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M. Shaharlar geografiyasi. O'quv qo'llanma,- T.: "VNESHINVESTPROM" 2019, 184 b.
7. O'zbekiston hududlarining yillik statistik to'plami.-Toshkent, 2026.